

AMUDARYO DELTASI LANDSHAFTLARIDA VUJUDGA KELGAN GEOEKOLOGIK MUAMMOLARNING OLDINI OLISH VA MELIORATIV HOLATINI YAXSHILASH MASALALARI

E.A.Fayziyev – *geografiya fanlari bo'yicha falsafa doktori*

J.Yu.Xasanov – *geografiya fanlari bo'yicha falsafa doktori*

Samarqand davlat universitetining Urqut filiali

Tavanch so'zlar: melioratsiya, landshaft, sho'rxok, suffuziya, eroziya, fatsiya, relef, geosistema, antropogen, avtomorf, gidromorf, alluvial, kollektor.

Ключевые слова: мелиорация, ландшафт, солончак, сүффюзия, эрозия, фация, рельеф, геосистема, антропогенный, автоморфный, гидроморфный, аллювиальный, коллектор.

Key words: reclamation, landscape, salinity, suffusion, erosion, facies, relief, geosystem, anthropogenic, automorphic, hydromorphic, alluvial, collector.

Kirish. Bugungi kunda jahon aholisini mavjud tabiiy resurslar bilan ta'minlash maqsadida landshaftlardan intensiv foydalanilayotganligi tufayli tabiiy landshaftlarning texnogen buzilish, sho'rlanish, yerlarning meliorativ holatining yomonlashuvi, tuproq degradatsiyasi va geoeologik muammolar yildan yilga kuchayib bormoqda. Xususan, Amudaryo deltasida tabiiy landshaftlarni muhofaza qilish va tabiiy resurslardan oqilona foydalanish chora-tadbirlarini ishlab chiqish muhim ahamiyatga ega.

Hozirgi vaqtda Amudaryo deltasi uchun Orol dengizi suv sathining pasayishi natijasida Orolbo'yi hududining boshqa hududlariga nisbatan cho'llanish, ikkilamchi sho'rlanish jarayonlari ta'siri kuchli bo'lib, ushbu jarayonlarning salbiy oqibatlariga qarshi kurashish bo'yicha chora-tadbirlarni ishlab chiqish va rejalashtirish bugungi geograf olimlar oldida turgan muhim vazifalardan biri hisoblanadi [2]. Delta tabiiy landshaftlarining jadallik bilan o'zlashtirish natijasida sug'oriladigan maydonlarning kengayib borishi va qishloq xo'jaligida yerdan foydalanishda agrotexnik qoidalarni buzilishi bir qancha geoeologik muammolarni yuzaga kelishi natijasida yer osti va yer usti suvlari va tuproqlarini sho'rlanishi hamda turli xil kimyoviy moddalar bilan ifloslanishi kuzatilmogda. Bunday muammolar o'ta dolzarb global muammolardan biri bo'lib, ularning oldini olish va bartaraf etish uchun chuqurroq ilmiy jihatdan o'rganish hamda bartaraf etish yuzasidan chora-tadbirlar ishlab chiqish Amudaryo deltasi hududida geoeologik barqarorlikni ta'minlashda muhim ahamiyatga ega [1].

Amudaryo deltasida vujudga kelgan noqulay geoeologik vaziyatlarni yumshatish bo'yicha turli xil chora-tadbirlar amalga oshirilmogda. Shamol eroziyasining oldini olish uchun ixotazorlar bunyod etilmogda, har yili imkoni boricha pastqamliklarga Amudaryodan suv jamg'arib olinmogda. Amudaryo hozirgi deltasining janubiy qismi sug'orma dehqonchilik maqsadida foydalanib kelinmogda [6]. Amudaryo deltasining qaysi hududida balandliklarning maydoni pastliklarga nisbatan ko'p bo'lsa ya'ni tabiiy drenaj mavjud bo'lsa (balandliklar, asosan, kichik deltalarining boshlag'ich qismlarida ko'p maydonni egallaydi), shu hududning meliorativ holati boshqa hududlarga nisbatan ijobiy bo'ladi. Agar uning aksi bo'lsa, meliorativ holati salbiy bo'ladi. Shuning uchun, sug'orilmaydigan hududlarda kichik deltalardagi balandliklar va pastliklarning bir-biriga bo'lgan munosabati to'g'ridan to'g'ri meliorativ holatining murakkablik darajalarini belgilab beradi [6].

Amudaryo deltasi murakkab ekologik sharoitidagi yerlardan foydalanishni optimallashtirishda eng asosiy omillardan biri bo'lib, hududda tarqalgan tuproqlar turlari, holati, mexanik tarkibi, sho'rlanish darajasi hisoblanadi. Amudaryo deltasi mintaqasida yerlardan noto'g'ri foydalanish oqibatida, tuproqlarning sho'rini yuvish me'yorlari darajasining ortishi, yer osti suvlari sathining ko'tarilishiga olib kelmogda. Bu esa o'z navbatida

tuproqlar geoeologik-meliorativ holatining yomonlashish sabablaridan biri hisoblanadi. Amudaryo deltasi hamda Orolbo'yi hududlari tabiiy sharoitlarining keskinlashuvi tuproq qoplamining o'zgarishi, sho'rlangan yerlar maydonlarini kengayishiga olib keldi, bu esa o'z navbatida sug'oriladigan tuproqlarning holatini kompleks tarzda batafsil o'rganish yo'nalishidagi tadqiqotlarda yangicha yondashuvlar va uslubiyotlardan foydalanishni taqozo etmogda. Sho'rlangan tuproqlarning sho'rini yuvish hali ham eskicha usullarda olib borilmogda. Binobarin, bu usullar bir tomondan tuproq meliorativ holatini sezilarli darajada yaxshilasa, ikkinchi tomondan ma'lum vaqtdan keyin tuproqlarning yanada kuchliroq sho'rlanishiga sharoit yaratib bermogda. Sug'oriladigan yerlarda sho'r yuvish uchun eng yaxshi vaqt oktyabr, noyabr va dekabr oylaridir. Qishda sho'r yuvish ancha qiyinlashadi, (ayniqsa tuproq natriy sulfat tuzlariga boy bo'lsa) ko'pchilik tumanlarda esa bahorda sho'r yuvish ishlari amalga oshirilib kelinmogda, bu esa yaxshi samara bermaydi. Yetarlicha zovurlashtirilmagan va sizot suv sathi yuza joylashgan yerlar kechiktirib yuvilganda tuproq tuzlardan chuqurroq tozalanmaydi, yuvish ta'sirida ko'tarilgan suv sathi pasayishiga ulgurmaydi, oqibatda tuproqning ustki gorizonti sezilarli darajada qaytadan sho'rlana boshlaydi. Tuproqqa ishlov berish sifati yomonlashadi, natijada ekin siyrak bo'lib qoladi, yomon o'sadi, sust rivojlanadi, olinadigan hosil kamayadi. Shunday qilib, sho'r yuvish kechiktirilgani sari va u bahorga qoldirilganida sho'r yuvish samarasi kamayib boradi [5]. Bu esa o'z navbatida tabiiy landshaftlarning meliorativ holatiga faol ta'sir ko'rsatadi.

Gidrotexnik inshootlari, ayniqsa, sug'orish kanallari, kollektorlar, suv omborlari, to'g'onlar va boshqalar ishga tushirilgandan keyingi dastlabki kunlardan oq ularning konturida joylashgan landshaftlar bilan o'zaro ta'siri kuzatiladi. Landshaftlarning meliorativ holatini aniqlashda yotqiziqslarning mexanik tarkibini, litologik tuzilishini va muhandislik xususiyatlarini bilish ham muhim ahamiyatga ega [4]. Landshaftlarning meliorativ holatini belgilovchi iqlim ham tabiiy omillar qatorida katta o'rin tutadi. Delta landshaftlarida yerlarning meliorativ holatini belgilashda grunt suvining roli katta bo'lib, u ayniqsa, tuproqlarning suv-tuz rejimini belgilab beradi. Yuqorida ko'rsatib o'tilgan omillarning o'zaro munosabati va bog'liqligi hududdagi nishablikning u yoki bu tipini shakllantiradi. Nishablik darajasi sug'orma dehqonchilikni rivojlanishi uchun asosiy ko'rsatkichlardan biridir. Nishablik darajasi bilan grunt suvlarining rejimi bog'langan bo'lsa, o'z navbatida grunt suvlarining rejimi bilan esa landshaftlarda ro'y beradigan suv-tuz va tabiiy geografik jarayonlar bog'langandir [6].

Tahlil va natijalar. Amudaryo deltasi tabiiy komplekslari meliorativ holati tuproqlarning mexanik tarkibi, litologik tuzilishi va sho'rlanish darajasi bo'yicha turlicha tarqalgan. Orol dengizi qurigan tubining yildan yilga kengayayotganligi zaxira yer fondini maydonini

oshiradi. Ammo, uning yer va yaylov resurslaridan kuchli sho'rlanganligi va mahsuldorligi pastligi sababli qishloq xo'jaligida foydalanilmayapti hamda turli tuz va changlarning atrof-muhitga salbiy ta'siri natijasida Amudaryo deltasining shimoli-sharqiy, shimoliy va shimoli g'arbiy qismida o'zlashtirishga yaroqsiz yerlar maydoni kengayib bomoqda. Amudaryo deltasiga qum va tuzlarni kirib kelishini oldini olish maqsadida ular bilan doimiy kurash olib borish kerak. Bunda eng samarali usul dengizning qurigan qismida turli xil fitomeliorativ chora-tadbirlarni amalga oshirish lozim. Amudaryo deltasida tuproqlarda tuzning to'planishi intensiv shaklda kuzatiladi, buni dengiz tubining qurigan qismi va Amudaryo deltasi sug'oriladigan tuproqlarining sho'rlanishidan ko'rish mumkin. Bundan tashqari, tuz to'planishi nafaqat o'simliklarning ildiz tizimini, balki butun aeratsiya zonasini ham qamrab oladi, bu haqida qator tuz qatlamlarining mavjudligi dalolat beradi, unda tuzlarning miqdori 1-5% gacha, ba'zi joylarda undan ham ko'proq o'zgarib turadi, gipslarning hosil bo'lishi kuzatiladi. Tuproqlarda tuzning to'planishi nafaqat tuproq shakllanishi va yangi turdagi tuproqlarning paydo bo'lishi, balki o'simliklarning suksessiyasi, ya'ni avvalgi o'simliklarni biotsenozning yangi sharoitlariga moslashgan yangi guruhlar bilan almashinishi bilan ham bog'liq. Ildiz qatlamining sho'rlanish sharoitida o'simliklarning zichligi odatda siyrak, bir xil, nisbatan bir turga mansubdir. Tabiiy komplekslarning meliorativ holatini belgilashda tuproqlarning sho'rlanishi asosiy ekologik muammolardan biri hisoblandi [3].

Tuproqlarning sho'rlanishi asosan sug'orishni noto'g'ri olib borganda yer osti suvlari sathining ko'tarilishi natijasida ro'y beradi (1-rasm). Birlamchi va ikkilamchi sho'rlanish kuzatiladi. Ikkilamchi sho'rlanishda suv kappilyarlar orqali ko'tarilib tuzi tuproqda qoladi yoki ortiqcha sug'orish natijasida yer osti suvlari erigan tuzlar bilan sho'rlanadi. Ikkilamchi sho'rlanish ko'proq zarar yetkazadi. Sho'rlanishning oldini olish uchun zovurlar o'tkaziladi, yerlarning sho'ri yuviladi. Tuproqlarning botqoqlanishi asosan namlik ko'p joylarda kuzatiladi. Daryo o'zanlari va ko'llar atrofida botqoqlangan uchastkalar vujudga keladi. Botqoqlarni quritish uchun maxsus meliorativ tadbirlari o'tkaziladi [5].

Melioratsiya tub ma'nosi ham yerning tabiiy xususiyatlarini e'tiborga olib, ekinlarni ekish uchun qulay sharoitlarni yaratish, yaylovlarning mahsuldorligini oshirish, turi zararli hodisalarga qarshi kurash chora-tadbirlarni ishlab chiqishga xizmat qilar ekan, bu borada landshaftshunoslikka juda yaqin turadi. Bu kompleks tadbirlar V.V.Dokuchaev, P.A.Kostyakov, V.R.Vilyams ishlarida ilmiy asosda ishlab chiqilgan va hozirgi kunda ham o'z qiymatini yo'qotmagan. Meliorativ tadbirlarni suv tartibotini boshqarib borishida, yerning ustki va ostki qismida oqib keladigan va chiqib ketadigan suv miqdorini har qaysi gidrografik basseynida boshqarib va undan suv

xo'jaligida to'g'ri, oqilona foydalanish bilan bir qatorda, suv transporti, yerlarni suv bilan ta'minlash va hattoki baliqchilik va boshqa qishloq xo'jalik ishlarini yanada yuksaltirishda qo'llanishi lozim [7]. Bu hududlarning tabiiy-meliorativ holati ancha murakkab sharoitlar bilan tavsiflanadi, ularni xo'jalik aylanmasiga jalb qilish uchun mavjud tuz balansini tubdan o'zgartiruvchi amaliy kompleks chora-tadbirlar qo'llash zarur. Bunday hududlardan yem-xashak yetishtirish uchun foydalanish maqsadga muvofiqdir. Amudaryoning ko'p suvli yillarida (Sudoche, Oqdaryo va Qipchoqdaryo, Ko'hnadaryo, Oqdaryo va boshqalar) suv havzalari atrofida keng qamishli yaylovlar va pichanzorlarni suv bosadi va qurg'oqchil yillarda sug'orish maydoni keskin qisqaradi. Natijada bu yerda har yili (sug'orish maydoni va davriyligiga qarab) ozuqa uchun qamishdan yuqori hosil olinadi [6].

Tabiiy landshaftlarning o'zgarishini aniqlashda Amudaryo deltasi va dengiz qurigan qismidagi ayrim landshaftlarning o'ziga xos joylashishini hisobga olish kerakligi, ba'zi hollarda barqaror sho'rlangan landshaftlarni yuqori minerallashtirgan yer osti suvlari doimiy ravishda paydo bo'lishi, boshqalarida – tuproq namligining 5-7 m dan pastda bo'lishi tufayli tabiiy komplekslarni minerallashtirish darajasini pasaytirish mumkinligi, yer osti suvlari sathining bosqichma-bosqich pasayishiga mahalliy litogen omillar ta'sirining ustunligi muhim rol o'ynaydi [3]. Amudaryo deltasi tabiiy komplekslarida suvdan noto'g'ri foydalanish natijasida ro'y berayotgan dinamik jarayonlar, yerlarning meliorativ holatining yomonlashuvi, tuproq va o'simlik degradatsiyasi, sug'oriladigan yerlarning texnogen buzilishi, landshaftlarning melioratsiya ta'sirida o'zgarishi, sug'oriladigan yerlarni meliorativ holatni tadqiq etish kabi masalalarni o'rganish natijasida quyidagi ilmiy va amaliy xulosalar qilindi:

Xulosa. Bugungi kunda tuproqlarning unumdorligining keskin tushib ketishi hamda sho'rlanish darajalarini kelib chiqishini ikki guruhga bo'lish mumkin. 1. Doimiy o'zgaruvchan ekologik omillar ta'sirida tuproqlarning tabiiy rivojlanish tendensiyalari, ya'ni yerosti suvlari, daryolar, ko'llar, dengizlar sathining o'zgarishi, iqlim o'zgarishi, o'simliklar, neotektonikasi. 2. Inson faoliyati ta'sirida, ayniqsa sug'orish, drenajlash, shudgorlash, yaylovlarni ko'paytirish, daraxt va butalarni kesish, pichan o'rish, kanallar, drenaj tizimlari, to'g'onlar va suv omborlaridan noto'g'ri foydalanish natijasida tuproqlarning sho'rlanish darajalari oshib bormoqda.

Hozirgi kunda hududning grunt suvlari rejimi irrigatsiya va melioratsiya tizimlari, sug'oriladigan ko'llar, sug'oriladigan yerlarning infiltratsiyasi ta'siri natijasida shakllanmoqda. Sug'orishni landshaft komplekslariga ta'siri va uning natijasida ro'y berayotgan dinamik jarayonlarni aniqlash, tadqiq etishda masofaviy zondlash ma'lumotlaridan foydalanish keng imkoniyatlar yaratishini aniqlash imkonini berdi.

Adabiyotlar

1. Рафиков В.А. Проблемы решения судьбы Аральского моря. – Тошкент: «Урфон», 2009.
2. Рафиков В.А. Геосистема деструкция ва деградациясининг чегаралари ва хусусиятлари ҳамда қайта тикланиши. Геогр. фанлари доктори (DSc) дисс. автореферати. – Тошкент: 2017. 80-88-б.
3. Гофурова Л.А., Абдуллаев С.А., Намозов Х.К. Мелиоратив тупроқшunoslik. – Тошкент: Ўзбекистон миллий энциклопедияси, 2003.
4. Хурсанов Д.Б. Автореферат диссертации доктора философии (PhD) по географическим наукам на тему: Структура ландшафтов современной дельты Амударьи и закономерности дифференциации. – Самарканд: 2019.
5. Ганиев З.А. «Амударё ҳозирги дельтаси геотизимлари экологик ҳолатини яхшилашнинг географик асослари» мавзусида (PhD) диссертацияси. – Самарканд: 2022.
6. Fayziyev E.A. «Amudaryo deltasi landshaftlarining melioratsiya ta'sirida o'zgarishi» mavzusida PhD dissertatsiyasi. – Samarqand: 2024.
7. Абдиреймов С.Ж. Оценка и прогноз оазисных ландшафтов дельты Амударьи для геоэкологических целей. Автореферат дисс. на соиск. уч.степени. канд. геогр. наук. – Ташкент: 2005.

REZYUME. Amudaryo deltasi landshaftlarining hududlarda meliorativ holatining murakkablik darajalarining ma'lum qismi kollektor havzalarining ichki tuzilishi bilan bog'langan bo'lsa, sug'orilmaydigan hududlarda esa kichik deltalarning strukturaviy yaxlitligi bilan bog'langandir. Bu yerda shuni alohida ta'kidlash lozimki, tuproqlar meliorativ holatining o'zgarishida kichik deltalardagi oqimlarning yo'nalishi bilan bir qatorda balandlik va pastliklarning o'zaro munosabati ham muhim ahamiyatga ega.

РЕЗЮМЕ. Определенная часть сложности мелиоративного состояния ландшафтов дельты Амударьи в регионах связана с внутренней структурой коллекторных бассейнов, а на неорошаемых территориях – со структурной целостностью малых дельт. При этом следует отметить, что в изменении мелиоративного состояния почв, наряду с направлением потоков в малых дельтах, важное значение имеет также соотношение высот и понижений.

SUMMARY. A certain part of the complexity level of land reclamation of the Amudarya delta landscapes in the regions is connected with the internal structure of the collector basins, while in non-irrigated areas it is connected with the structural integrity of small deltas. Here, it should be emphasized that in the change of land reclamation, along with the direction of streams in small deltas, the relationship is also important between elevations and lowlands.

ÓZBEKSTANDA EKONOMIKALÍQ HÁM SOCIAL-GEOGRAFIYALÍQ IZERTLEWLERDÍN TIYKARGÍ BAĞDARLARÍ HÁM ZAMANAGÓY RAWAJLANÍW TENDENCIYALARÍ

Sh.B.Qurbonov – *geografiya ilimleri boyınsha filosofiya doktori, docent*

Chirchiq mámleketlik pedagogikalıq universiteti

K.K.Kaipov – *tayanish doktorant*

Berdaq atındaǵı Qaraqalpaq mámleketlik universiteti

Tayanch so'zlar: iqtisodiy va ijtimoiy geografiya, geografik tadqiqotlar, asosiy yo'nalishlar, ijtimoiy geografiya, tadqiqotlar, rivojlanish tendentsiyalari, sanoat geografiyasi, qishloq xo'jaligi geografiyasi, nazariyalar.

Ключевые слова: экономическая и социальная география, географические исследования, основные направления, социальная география, исследования, тенденции развития, промышленная география, сельскохозяйственная география, теории.

Key words: economic and social geography, geographical research, main directions, social geography, research, development trends, industrial geography, agricultural geography, theories.

Kirisiw. Ekonomikalıq hám sociallıq geografiya pánı basqa pánler qatarında óz ornı, abırayı, ilimiy hám ámeliy áhmiyetine iye. Bul pán aymaqlardıń funkciyası, ne menen shuǵıllanıwı, hár bir aymaqtıń ekonomikalıq sıyımlılıǵı hám qanıgelesiwi, xalıqtıń sociallıq turmısındaǵı geografiyalıq ayırmaslıqlardı úyrenedi. Sonıń menen birge, bul pán orınlardıń geografiyalıq ózgesheligi hám sapası, ekonomikalıq hám sociallıq tarawlardıń aymaqlıq quramı hám sistemasın úyrenedi.

Ekonomikalıq hám sociallıq geografiyada ol yamasa bul hádiyse hám processlerdiń jaylasıwı, ogan tásir etiwshi geografiyalıq faktorlar, ekonomikanıń túrli tarmaqlarınıń aymaqlıq shólkemlestiriw nızamlıqları áhmiyetli esaplanadı.

Jumıstıń maqseti hám wazıypaları. Ózbekstanda ekonomikalıq hám sociallıq geografiyalıq izertlewlerdiń tiykargı baǵdarların anıqlaw, toparlastırıw hám de zamanagóy rawajlanıw tendenciýaların analizlew jumıstıń maqseti esaplanadı. Qoyılǵan maqsetke erisiw ushın tómendegi wazıypalar belgilendi: ekonomikalıq hám sociallıq geografiyanıń pán sıpatında qalıplesiwin úyreniw; pánniń ayrıqsha baǵdarları, olardıń rawajlanıwına úles qosqan ilimpazlardıń jumısları menen tanısıw; Ózbekstanda ekonomikalıq hám sociallıq geografiyanıń qalıplesiwi hám rawajlanıwı, pánniń tarmaqlar quramın ajıratıw.

Talqılaw hám nátiyjeler. Adamzat jámiyetinde júz berip atırǵan sociallıq-ekonomikalıq waqıyalardıń waqıt dawamında úzliksiz ózgerip barıwı kópshilik pánlerdiń qalıplesiwi hám rawajlanıwına tikkeley tásir kórsetedi. Atap aytqanda, jámiyetniń rawajlanıwı, óndiris kúshleriniń rawajlanıwı hám olardıń aymaqlar kóleminde jaylasıwındaǵı processler ekonomikalıq hám sociallıq geografiya pániniń izertlew sheńberine, onıń obykti hám predmetindegi ózgerislerge de alıp kelmekte. Sonlıqtan, onıń atalıwı ótken dáwirler dawamında hám túrli mámleketlerde hár qıylı túrde talqılanǵan. Máselen, túrli dáwirlerde "ekonomikalıq geografiya" dep dástúriy atalǵan

bul pán keyin ala social yamasa sociallıq geografiya, ekonomikalıq hám sociallıq geografiya, sociallıq-ekonomikalıq geografiya túrinde júrgizilgen bolsa, rawajlanǵan mámleketler, ásirese, Germaniya, Franciya, Ullı Britaniya, Yaponiya sıyaqlı mámleketlerde sociallıq, insan yamasa gumanitar geografiya dep te ataladı [1:6-7; 2:17]. Sonday-aq, házirgi kúnde Rossiya hám ayırım ĞMDA mámleketlerinde bolsa ol "Ekonomikalıq, sociallıq, siyasiy hám rekreaciya geografiyası" dep te júritiledi hám usı qanıgelik boyınsha dissertaciýalar qorǵaladı.

Bizge belgili, "Ekonomikalıq geografiya" túsiniǵın dáslep rus alımı M.V.Lomonosov 1760-jılı qollanǵan. Biraq, onıń pán sıpatında qalıplesiwi yaki pánniń birinshi anıqlamasın nemis alımı A.Veber XX ásirniń baslarında (1909-jılı) bergen. Onıń pikirinshe, bul pán aymaqlardıń xojalıq iskerligi, máseleler menen shuǵıllanǵan [3:304-305; 4:251].

Ekonomikalıq geografiyanıń obykti dáslep belgili bir mámleket yaki rayonniń xojalıǵı hám xalqı, óndiris kúshleriniń jaylasıwınan ibarat bolǵan, keyin ala ol xojalıq hám xalıqtıń aymaqlıq quramı yaki sisteması, aymaqlıq-ekonomikalıq kompleksler (kompleksler) formasın aldı [1:5]. Bul pánniń táriypi de hár túrli "konceptiýalar" (rayonizaciya, aymaqlıq sistema hám aymaqlıq kompleksler) kózqarasınan hár qıylı keltiriledi. Ulıwma alǵanda, házirgi zaman ekonomikalıq hám sociallıq geografiyası gárezsiz pán sıpatında túrli mámleket hám rayonlarda óndiris kúshleriniń rawajlanıwı hám jaylasıw ózgeshelikleri hám de insan tirishilik iskerligi hám turmıs táriziniń aymaqlıq táreplerin úyrenedi. Qısqasha aytqanda, onı jámiyet turmısı hám iskerligin aymaqlıq shólkemlestiriw haqqındaǵı pán dep táriyiplew múmkin. Keltirilgen anıqlama házirgi zaman kózqarasınan ekonomikalıq hám sociallıq geografiya pániniń tıp mánisin ózinde jamlegen halda, onı tolıq sáwlelendiredi.

Ekonomikalıq hám sociallıq geografiya (anıǵıraǵı, keń mániste sociallıq geografiya) 3 tiykargı bólim, yaǵnıy